XALQ DEPUTATLARI FORISH TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 3-dekabr VII-13-110-3-53-K/25 Forish tumani

Forish tumani bo‘yicha 2025-2026-yil kuz-qish (novegetatsiya)davrida sug‘orish ishlari uchun ajratilgan suv limitini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inida suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli qarorining ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari Forish tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi buo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligi oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli qaror ijro uchun hamda Forish tumani “Suv yetkazib berish xizmati” Davlat muassasasi direktor B.Ibrohimovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Forish tuman «Suv yetkazib berish xizmati» Davlat muassasasi direktori B.Ibrohimovning Forish tumani bo‘yicha 2025-2026- yil kuz-qish “novegetatsiya” davrida sug‘orish ishlari uchun ajratilgan suv limiti to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin va ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari va Forish tumani “Suv yetkazib berish xizmati” Davlat muassasasi direktori B.Ibrohimovga:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish sarmaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli qarori asosida ishlarni tashkil etish;

- belgilangan limitlar asosida iste’molchilarga suv yetkazib berish taminlansin;

- sug‘orish tarmoqlari va ulardagi agrotexnik inshootlarni soz holatda saqlash, ta’mirlash-tiklash tadbirlari amalga oshirilsin;

- iste’molchilar kesimida iste’mol qilingan suv hajmi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni soliq organlariga o‘z vaqtida taqdim etib borilsh vazifalari yuklatilsin.

4. Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga har chorak yakuni bilan hisobotlarni taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

5. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining “Agrar, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi” doimiy komissiya (A.Ergashev) hamda tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **KARIMOV BOTIR NARINOVICH**

Xalq deputatlari Forish tumani
Kengashining
2025-yil 3-dekabrdagi
VII-13-110-3-53-K/25 -son qaroriga
1-ilova

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO‘JALIGI VAZIRLIGI JIZZAX VILOYATI IRRIGATSIYA TIZIMLARI HAVZA BOSHQARMASI

04.11.2025 y. **88-1708-cn_rl/2025-son** **Forish t.**

Xalq deputatlari
Forish t. Kengashiga

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 5-yanvardagi PQ-5-sonli qarori bilan “Har yili 1-aprelga qadar vegetatsiya davri uchun yakuniy iste’molchilar kesimida ekinlarni sug‘orish uchun suv olish limitlarini hududlar bo‘yicha tasdiqlangan limit doirasida ishlab chiqib, tasdiqlash uchun Xalq deputatlari tuman Kengashlariga kiritish” topshirig‘i berilgan.

Shuningdek, Suv yetkazib berish xizmatlari rahbarlari tegishlicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan bir yilda ikki marta xalq deputatlari tuman Kengashlariga hisobot berib borishi belgilab qo‘yilgan.

Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 82-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizomga asosan xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlari qarorlari bilan — suv iste’molchilariga, shuningdek, boshqa suvdan foydalanuvchilar va suv iste’molchilariga — tuman ahamiyatiga ega bo‘lgan suv obyektlaridan manbalar, hududlar va iqtisodiyot tarmoqlari bo‘yicha belgilanishi;

suvdan foydalanish va suv iste’mol qilishning belgilangan davri tugagandan keyin ikki oy muddatda manbalardagi suvning haqiqiy miqdori hisobga olingan holda, o‘tgan davr uchun suv olishning uzil-kesil limitlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Shundan kelib chiqib, hududlar kesimida 2025-2026-yillarning kuzgi-qishki mavsumida iqtisodiyot tarmoqlariga ajratilgan suv olish limitlari doirasida ishlab chiqilgan yakuniy iste’molchilar kesimida ekinlarni sug‘orish uchun hamda manbalardagi suvning haqiqiy miqdori hisobga olingan holda “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari tomonidan suv xo‘jaligida amalga oshirilgan ishlari bo‘yicha hisobotini Xalq deputatlari Forish t. Kengashining navbatdagi sessiya yig‘ilishida ko‘rib chiqib, tasdiqlanishida amaliy yordam berishingizni so‘rayman.

Suv olish limitlarining iste’molchilar kesimidagi ro‘yxati ilova qilinadi.

1. Tashkilot nomi:"FORISH TUMAN SUV YETKAZIB BERISH XIZMATI" DAVLAT MUASSASASI
STIR:305081933
F.I.O:"FORISH TUMAN SUV YETKAZIB BERISH XIZMATI" DAVLAT MUASSASASI
Imzolangan sana:04.11.2025 10:40:25

2. Tashkilot nomi:SIRDARYO - ZARAFSHON IRRIGATSIYA TIZIMLARI XAVZA BOSHQARMASI
STIR:305076653
F.I.O:SIRDARYO - ZARAFSHON IRRIGATSIYA TIZIMLARI XAVZA BOSHQARMASI
Imzolangan sana:04.11.2025 10:49:02

Forish t.da suv iste’molchilar kesimida **2025-2026 yil kuzgi-qishgi** mavsum uchun ajratilgan suv

LIMITI

№	Suv iste’molchisi nomi	Sug‘oriladigan yer maydoni, ga	Jami suv olish limiti, ming.m3	Shu jumladan oylar va dekadalar bo‘yicha																	
				Oktabr			Noyabr			Dekabr			Yanvar			Fevral			Mart		
				I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III	I	II	III
1	"QO`LBA MAHALLA FUQAROLAR YIG`INI" FUQAROLARNING O‘ZINI-O‘ZI BOSHQARISH ORGANI		3 629	172	172	166	202	202	232	15	15	16	15			373	395	316	389	409	540
2	BOG`DON MAHALLA FUQAROLAR YIG`INI FO`O`BO		1 000	47	47	46	56	56	64	4	4	4	4			104	110	88	108	108	150
3	OYBEK MAHALLA FUQAROLAR YIG`INI FO`O`BO		1 352	64	64	62	76	76	87	5	5	6	5			140	148	119	146	146	203
4	"O'ZBEKISTON MAHALLA FUQAROLAR YIG'INI" FO`O`BO		163.8	8	8	7	9	9	10	0.7	0.7	0.7	0.7			17	18	14	18	18	25
5	Jami:		2 515.8	291	291	281	343	343	393	24.7	24.7	26.7	24.7			634	671	537	661	681	918